



Buxoro viloyati sanoat sohasini rivojlantirish tendensiyasi

Xolmurodava Firuza Ro'zimurodovna

Xolmurodava Nargiza Ro'zimurodovna

Osiyo xalqaro universiteti magistrantlari

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning mintaqaviy xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sanoat, korxona, innovatsiya, qo'shimcha qiymat, diversifikatsiya, omil, moliyaviy va iqtisodiy resurslar.

Abstract: This article analyzes the regional features of the factors influencing the innovative activity of industrial enterprises.

Keywords: industry, enterprise, innovation, added value, diversification, factor, financial and economic resources.

Buxoro viloyati iqtisodiyotida hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi hayot darajasini oshirish uchun mineral-xomashyo va mehnat resurslarini, tadbirkorlik qobiliyati, aholining yuqori bilim darajasi va mehnat malakasini, tabiiy-iqlim sharoitlari hamda noyob tarixiy merosni o'z ichiga olgan mavjud boy resurs salohiyatidan to'liq foydalanish imkonini bermaydigan barqaror nomutanosibliklar yuzaga keldi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, boshqaruv, resurs va investitsiya salohiyatini hududning ustuvor sohalariga yo'naltirishni



nazarda tutuvchi rivojlanishning yangi strategiyasini ishlab chiqish kabi hudud oldida turgan vazifalarni hal etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Quyidagilar 2019 — 2023-yillarda Buxoro viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi :

a) sanoat salohiyatini quyidagilar hisobidan rivojlantirish va 2023-yilda uning o‘shishini 3 baravarga oshirish: qo‘shilgan qiymatlarning o‘zaro bog‘liq zanjirini yaratish orqali barcha turdagi qishloq xo‘jaligi, qurilish va turli mineral xomashyoni chuqur qayta ishlash, xususan, zamonaviy texnologiyalar, shu jumladan xorijiy sheriklarning mablag‘lari va texnologiyalaridan foydalangan holda tayyor mahsulot ishlab chiqarish; qo‘shilgan qiymatlar zanjirini rivojlantirishning innovatsion, texnologik va logistik samaradorligini ta‘minlaydigan hududiy, tarmoq va tarmoqlararo resurs-sanoat klasterlarini tashkil qilish; viloyatning barcha paxtachilik kompleksini yuqori sifatli paxta xomashyosi yetishtirishdan eksportbop tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishgacha bo‘lgan butun jarayonning texnologik bog‘liqligini ta‘minlaydigan ishlab chiqarishni tashkil etishning klaster shakliga bosqichma-bosqich o‘tkazish; qishloq xo‘jaligi xomashyosini, jumladan, qorako‘l teri, mo‘yna, charm, go‘sht va sut, baliq mahsulotlari, meva-sabzavot xomashyosi va texnik ekinlarni chuqur qayta ishlash bo‘yicha yo‘qotilgan ishlab chiqarishlarni qayta tiklash, yangilarini tashkil qilish va faoliyat ko‘rsatayotgan ishlab chiqarishni kengaytirish; kichik sanoat zonalarini korxonalarini har bir tuman va shaharda, shuningdek, “G‘ijduvon” erkin iqtisodiy zonasida (keyingi o‘rinlarda EIZ deb ataladi) tashkil etilayotgan kichik sanoat zonalarida hududiy joylashtirish orqali samarali rivojlantirishni ta‘minlash; neft va gaz sohasida yirik loyihalarni amalga oshirish, shu jumladan qish mavsumida aholini tabiiy gaz bilan barqaror ta‘minlash va uni eksportga yetkazib berish, shuningdek, MTO texnologiyasi asosida gaz xomashyosini chuqur qayta ishlash hamda yakuniy mahsulotlar — polistirol, polietilentereftalat, sintetik kauchuklar, spandeks,



poliuretan, akrilonital-butadiyen-stirol va boshqa polimer mahsulotlar ishlab chiqarish uchun “Gazli” yer osti gazni saqlash omborini kengaytirish;

b) agrar sektorni quyidagilar hisobidan jadallashtirish va diversifikatsiya qilish, har bir gektardan olinadigan mahsulotni ayni vaqtdagi 1,2 ming AQSh dollaridan 6 ming AQSh dollarigacha ko‘paytirish: yiliga 2-3-marta hosil olish, paxtachilik va g‘allachilikda hosildorlikni kamida 1,3 baravarga, meva-sabzavotchilikda 1,5 — 2 baravarga, chorvachilikda mahsuldorlikni 1,2-1,3 baravarga oshirishni va ishlab chiqariladigan mahsulotlarning yuqori sifatini hamda narxlari raqobatbardoshligini ta’minlaydigan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yuritishning ilg‘or usullarini joriy qilish; faoliyat ko‘rsatayotgan tarmoqlarni rivojlantirish, limonlar, yong‘oqning turli navlarini yetishtirish, ipakchilik va baliqchilik, mo‘ynali hayvonlarni ko‘paytirish kabi yangi tarmoqlar hamda kichik tarmoqlarni tashkil qilgan holda qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish; avval foydalanishdan chiqarilgan 7,3 ming gektar erni qishloq xo‘jaligi oborotiga bosqichma-bosqich kiritish va 17,3 ming gektar yangi yerlarni o‘zlashtirish, shuningdek, 50 ming gektar erda tuproqni qayta ishlash va sug‘orish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini optimal joylashtirishning zamonaviy usullarini joriy etish; davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning hamda O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tomonidan ko‘maklashishning yangi mexanizmlarini joriy qilish orqali fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari yerlaridan samarali foydalanish;

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan Buxoro viloyatida 2023 yil yanvar-sentyabr oylari davomida sanoat tarmog‘ida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilindi.



2023-yil yanvar-sentyabr oylarida jami 22,1 trln.soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, 106,0%ga oʻsgan hamda respublikadagi ulushi 5% tashkil etgan.Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2023 yilning yanvar-sentyabr oylarida 10 944,3 ming soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 104,2%ga oʻsgan. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishining aholi jon boshiga yuqori koʻrsatkichlari Qorovulbozor t. (574,0 mln. soʻm), Kogon t. (15,3 mln. soʻm) hamda Kogon sh. (11,3 mln. soʻm) oʻrtacha viloyat koʻrsatkichidan (10,9 mln. soʻm) yuqoriligini koʻrsatgan.2023 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyatda toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarilishida yuqori ulush Gʻijduvon (21%), Qorakoʻl (16,5%), Romitan (16,3%), Buxoro sh. (12,8%) hamda Kogon (6,8%) tumanlari hissasiga toʻgʻri keladi.2023 yil yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20 868,2 mlrd. soʻm yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,3%ni tashkil etgan.Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 48,6%, toʻqimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 20,9%, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki



mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,9%, boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 4,8% va kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,2% tashkil etgan. Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan iste'mol mahsulotlari 792,1 ming so'm, shahar va tumanlar kesimida yuqori ko'rsatkichlar Qorovulbozor tumanida – 14 035,2 ming so'mni, Kogon tumanida – 4 943,1 ming so'mni, Buxoro shahrida – 3 442,6 ming so'mni tashkil etgan. 2023 yil yanvar-sentyabr oylari davomida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 7 055,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 31,9 % ni tashkil etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.09.2019-y., 09/19/794/3791-son; 23.04.2021-y., 09/21/234/0366-son;
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.12.2021-y., 09/21/766/1182-son, 29.12.2021-y., 09/21/786/1216-son; 28.09.2023-y., 09/23/500/0732-son)
3. Shadiyev, A. K. (2023). Stages of Development of The Digital Economy in Uzbekistan and Future Plans. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(12), 333-340.
4. Shadiyev, A. (2022). O 'QUV EKSKURSIYASI-TURIZMNI O 'QITISHNING INNOVATION USULI SIFATIDA. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 13(13).
5. Базарова, М. С., Шарипова, М., & Нуруллоев, О. (2021). “РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ” ДА АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ХУСУСИЯТЛАРИ. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 482.



6. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 582-586.
7. Bahodirovich, K. B. (2023). EVOLUTION OF THE AUDITING PROFESSION IN THE SMART MACHINE AGE. Gospodarka i Innowacje., 41, 450-454.
8. Khalilov Bahromjon Bahodirovich. (2023). The International Financial Reporting Standards (IFRS) Mean to Businesses and Investors in Uzbekistan. Miasto Przyszłości, 42, 746–750.
9. Raxmonqulova, N. (2023). DEVELOPMENT STRATEGY IN THE DEVELOPMENT OF THE REGIONAL ECONOMY. Modern Science and Research, 2(12), 301-305.